

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

## ANALYSIS OF PRELIMINARY RESEARCH ON THE PEOPLE OF KARAKALPAK

**Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich**, a teacher of the Department of History and  
Philology of the International University of Asia

E-mail : [sferuz1011@gmail.com](mailto:sferuz1011@gmail.com) Tel : +998936857755

**Abstract:** Over the past centuries, many historical researchers have conducted ethnological research on Karakalpaks. In our article, scientists provided valuable information about the ethnological composition of Karakalpaks.

**Key words:** Culture, spirituality, cultural studies, karakalpak people Ethnology, historiography, ethnological studies, Zarafshan oasis, clan, tribe, nation

### QORAQALPOQ XALQI BO'YICHA DASTURIY TADQIQOTLAR TAHLILI.

**Annotatsiya:** O'tgan asrlarda ko'plab tarixiy tadqiqotchilar qoraqalpoqlar bo'yicha etnologik tadqiqotlar olib bordilar. Maqolamizda olimlar qoraqalpoqlarning etnologik tarkibi haqida qimmatli ma'lumotlar bergan.

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, ma'naviyat, madaniyatshunoslik, qoraqalpoq xalqi Etnologiya, tarixnavislik, etnologiya, Zarafshon vohasi, urug', qabila, millat.

### АНАЛИЗ ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НАРОДА КАРАКАЛПАКА

**Аннотация:** На протяжении последних столетий многие исследователи-историки проводили этнологические исследования каракалпаков. В нашей статье учёные предоставили ценную информацию об этнологическом составе каракалпаков.

**Ключевые слова:** Культура, духовность, культурология, каракалпакский народ Этнология, историография, этнологические исследования, Зарафшанский оазис, род, племя, нация

1873-yilda qoraqalpoq xalqi Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olindi. Xalqning keyingi taqdiri ham endi imperiya taqdiriga bog'liq bo'lib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan qoraqalpoqlar ham rus tadqiqotchilari

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь**

tomonidan etnografik o‘rganish obyektiga aylandi. Ammo bu davrda sezilarli tadqiqot ishlari amalgalashirilgani yo‘q. M.Tleumuratov<sup>1</sup>ning yozishicha, bu davrda qoraqalpoqlar mahalliy madaniyatini o‘rganishda rus tadqiqotchilaridan A.Kunning bir nechta asarlari mavjud bo‘lib, u O‘rta Osiyoning to‘rt shahri, shu jumladan, Xorazm vohasi hududi, Qo‘ng‘iroq, Xo‘jayli, Chimboy, Nukus va boshqa joylariga tashrif buyuradi. U qoraqalpoqlarining yashash tarzi, xo‘jaligi urf-odatlari haqida ham asarlarida to‘xtalib o‘tadi.

1917-yilga qadar Turkistondagi ilmiy jamiyatlar tomonidan «Axborot»lar chiqarila boshlangan edi. Jumladan, Rus geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi «Axborot»ning 13 jildi (1898-1917), Turkiston havaskor arxeologlari to‘garagining majlislar qarorlari va «Axborot»laridan 21 to‘plam (1896-1917) va boshqa sohalardagi «Axborot»lar singari ma’lumotlari bosib chiqarilgan bo‘lib, bu ahvol ilmiy izlanishlarning bir qator jonlanganligidan dalolat berar edi. O‘scha vaqtarda havoskor rus kollektsiyachilaridan Barichevskiy, Vyatkin Kastal’skiy, Komarov, Petrov-Borzna, Poslavskiy, Stolyarov, Terentyev, Trafimov, Likoshin va boshqalarning to‘plagan ko‘pdan-ko‘p ma’lumotlari hammaga mashxur edi.

Bu arxeologik yig‘malarning aksariyati 1871,1874,1889-yillarda Toshkent, Samarqand va Farg‘onada ochilgan muzeylarda, shuningdek Sankt-Peterburg, Moskva muzeylari ko‘rgazma va zaxiralarda saqlanadi. Shu bilan bir qatorda o‘lkaning etnografiyasini o‘rganishda aytarli tadqiqotlar olib borildi, serob manbalar to‘planildi.

Bu borada V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, V.V.Radlov, A.N.Samoylovich mashhur sharqshunoslarning yaratgan asarlari ham ahamiyatlidir.

Tabiiy boyliklari, madaniy merosi g‘oyat boy bulgan va kam tekshirilgan bu o‘lka rus ziylolarining taraqiyarvar qismini juda qiziqtirardi. Mashhur rus zoologi, zoogeografi va sayyohi, darvinizmning e’tiqodli tarafdarlaridan bulgan N.A. Severtsov (1827-1886) Turkistonning ko‘p joylarini fizik-geografik jihatdan o‘rganishda, jumladan, Pomir tizma toglarining orografiyasini o‘rganishda ko‘p mexhnat va kuch sarf qildi. N.A. Seversov sayohati vaqtida zoologiya, botanika, mineralogiya va paleontologiyaga oid juda qimmatli kollektivalar to‘pladi.

Geolog va geograf I.V. Mushketovning (1850 -1902) ilmiy xizmatlari ham katta. Shimoliy Tyanshan tizma tog‘i orografiyasining geologik asoslarini dastlab u

---

<sup>1</sup> Тлеумуратов М. “Истоки культурных связей каракалпаков с соседними народами” – Нукус: Каракалпакстан, 1986. – С. 6-7.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**  
**SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь**

ko'rsatib berdi. U Turkistondagi ko'pgina foydali qazilma konlarini ta'riflab, Turkiston minerallarining dastlabki ruyxatini tuzib chiqdi. 1877-1879-yillarda Mushketov geologik tekshirish ishlarini bajarish maqsadida Oloy, Pomir, Buxoro, Hisorga, Amudaryo buylab va Kizilqumga sayohat qildi. 1880-yilda esa Zarafshon muzligiga ilmiy safar uyuştirdi.

Mushketov 1881-yilda (G.D. Romanovskiy bilan birgalikda) Turkistonning birinchi geologiya xaritasini tuzdi. O'rta Osiyo geologiya tuzilishining birinchi ilmiy kontseptsiyasini taklif qildi, uni o'rganish bosqichlarini ko'rsatib berdi. I.V. Mushketov uz tadqiqotlarini va Turkistonni o'rgangan boshqa olimlarning ilmiy ishlarini uzining mashxur «Turkistonning geologiya va orografiya ta'rifi» monografiyasida umumlashtirgan. Bu monografiyaga yozilgan katta muqaddima tarixshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilgan «O'rta Osiyoni o'rganish tarixi»ga ilova qilingan.

Harbiy topograflar ham qunt bilan unumli ishlar qilganlar, Turkiston harbiy topografiya bo'limi tuzilganga qadar (1867-yil) o'lka topografiya jihatidan qariyb butunlay o'rganilmagan edi.

Faqat Kaspiy va Orol dengizi sohillarida, Sirdaryo va Amudaryoning etak tomonlari, Balkhash kuli sohillari va boshqa ba'zi joylarda bir qadar aniq yarim instrumental va ko'z bilan o'lchangan tasvirga olishlar o'tkazilgan edi, xolos. Harbiy topografiya bo'limi oldida tabiiy kontrastlari bir-biridan keskin farq qiladigan juda katta hududni keng ko'lamda suratga tushirishdek mashaqqatli vazifa turardi. Bo'lim «xizmat yuzasidan lozim bo'lgan» ba'zi bir zarur xo'jalik va harbiy ehtiyojlarni ta'minlash bilan cheklanib qolmasdan, O'rta Osiyoning bosh xaritasini tuzish ishiga kirishib ketdi.

O'lkanli o'rganishda statistika qo'mitalari ham muhim rol o'ynaydi. 1868-yil yanvar oyida Turkiston statistika qo'mitasi tuzildi. Uning tashabbusi bilan 1872-yildan «Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar» nomli to'plam chiqarila boshladi: (1872-1876-yillar ichida hammasi bo'lib 5 to'plam chiqarildi) 1887-yil 1 yanvardan boshlab Sirdaryo (Toshkentda), Samarqand, Farg'ona (Yangi Marg'ilon) viloyatlari statistika qo'mitalari tuzildi.

O'rta Osiyo xalqlarining turmushiga bag'ishlangan, ilmiy va o'lkahshunoslikka doir turli habarlar va maqolalar «Turkestanskiy vedomosti», hamda «Turkiston viloyatini gazetasi» (Toshkent 1870-1917-yillar), shuningdek boshqa mahalliy matbuotlarda ham muntazam bosilib turgan.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**  
**SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь**

1870-yilda Toshkentda ochilgan Turkiston xalq kutubxonasi (hozirgi Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston milliy kutubxonasi) o‘lkani o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi barcha tadqiqotchilar, ayniqsa mahalliy xodimlar uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Kutubxona ochilishi vaqtida faqat 1700 jild kitob bor edi, 1917-yilga kelib undagi kitoblar soni 80 ming jildga yetdi. Kutubxona fondida saqlanayotgan adabiyot va manba majmularidan O‘rta Osiyoga ayniqsa Turkiston o‘lkasiga taalluqli «Turkiston asarlar va maqolalar to‘plami» juda ham qimmatli asar bo‘lib, shu kunlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Bu to‘plamni tuzish ishlarini ko‘zga ko‘ringan rus bibliografi V.I. Mejov Peterburgda 1868-yildan boshlab, 20 yil davomida olib borgan edi. 1888-yilda «Turkiston to‘plami»ga kirgan katta-katta jiddlarning soni 416 ga yetganda (1867-1887-yillarda to‘plangan materiallar edi) o‘lkadagi chor ma’muriyatining buyrug‘i bilan «mablag‘ yo‘qligi sababli» bu ishlar to‘xtatilgan edi. 1872-yilda A.A. Kun va boshqa Sharqshunoslar mashhur «Turkiston albbomi» ni (Turkiston o‘lkasining etnografiya, arxeologiya, kasb-hunar va tarixiga doir sur’atli albbomni) tuzib tamomladilar. Albbom 1262 dona rangli va rangsiz fotosur’atlar yopishtirilgan 447 kartondan iborat bo‘lib, Rossiyada faqat uch kutubxona imperator kutubxonasi, Fanlar akademiyasi kutubxonasi va Turkiston kutubxonasigina faxrlana oladigan, badiiy jihatdan g‘oyat noyob asar edi.

O‘rta Osiyo tarixiga oid eng muhim manbalardan biri X asr muallifi Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari N.S. Likoshin tomonidan rus tiliga o‘girilib, 1897-yilda nashr etilishi (V.V. Bartol’d tahriri ostida) juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Qisqa muddat ichida O‘rta Osiyo olimlari jamiyatni paydo bo‘ldi. Bu jamiyat o‘z oldiga O‘rta Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, statistikasini, iqtisodiga oid ma’lumotlarni to‘plash, ishlash va tarqatishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Uning ochiq majlisi 1871-yil 28 yanvarda bo‘ldi. Rus sharqshunosligi o‘zining g‘oyat katta ilmiy faoliyati bilan mahalliy tarixchilikka shak-shubhasiz katta ta’sir ko‘rsatdi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, rus sharqshunoslari O‘rta Osiyo tarixi yuzasidan jiddiy tadqiqot ishlari olib borib, bu ishga yerli tarixchi havaskorlarni ham jalb qilish, ular bilan birga hamkorlikda ish olib borishga harakat qildilar. Turkistonga kelgan shashunos olimlar mahalliy tarixchi va havaskorlar o‘rtasida yurib va yashab, O‘rta Osiyo tarixi haqida muhim ma’lumotlar va asarlarni to‘pladilar. Toshkentlik tarixchi Muhammad Solih Qoraxo‘ja o‘g‘li o‘zining «Tarixi

jadidi Toshkent» degan asarida Iskandar to‘ra ismli bir rus olimining uyiga kelgani, u bilan suhbatlashgani va O‘rta Osiyo tarixiga oid ko‘p savollar berib bahslashgani haqida yozadi. Iskandar to‘ra aslida Aleksandr Kun bo‘lib mahalliy xalq qadimdan Aleksandr ismini Iskandar deb atashadi.

Faqat A. Kunning emas, balki O‘rta Osiyoga kelgan barcha sharqshunoslarning ham xalq orasida yurib tarixga oid savollar berishi, ayrim masalalar yuzasidan bahslashishlari hamda ularga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishlari, shubhasiz, yerli xalqlar o‘rtasida tarixga qiziqish hissini oshirdi. O‘sha vaqtida nashr qilingan «Turkiston viloyatining gazeti» «Turkestanskiy vedomosti» va boshqa gazeta sahifalaridagi mahalliy tarixchi va havaskorlar tomonidan yozilgan yodnomalar, yodgorliklar haqidagi kichik-kichik xabarlar va maqolalar, arxeologik kollektsiyalar rus sharqshunoslarning mahalliy tarixchilikka samarali ta’sir ko‘rsatganligini va yerli xalq orasida ham tarixga qiziqish avj olganligini ko‘rsatdi Sattorxon Abdug‘offorov – rus sharqshunosligining bevosita ta’siri ostida tarixchilar qatoridan o‘rin olgan.

U 1876-yili Peterburgda chaqirilgan III xalqaro sharqshunoslар s’ezdiga A. Kun, Jo‘rabek Toshkentlik Muhammadqulov, Abdulla Niyozov, Buxorolik Mo‘sajon Saidjonovlar bilan birga Turkiston vakili bo‘lib qatnashdi. Rus sharqshunoslari, jumladan, N.I. Veselovskiy rahbarligida Akrom polvon Asqarov kabi havaskor tarixchi va arxeologlar yetishib chiqdi. U o‘zining harakatchanligi va ishchanligi bilan Turkistondagi fan ahillariga tanila boshlaydi. «Turkestanskiy vedomosti» gazetasining 1892 yida bosilib chiqqan sahifasida Akrom Asqarovning 1370 dona kumush pul, 13274 dona mis pul, neolit davriga oid tosh bolg‘a, jezdan yasalgan sulug‘, jez oyna kabi turli buyumlar to‘planganligi haqida ma'lumot beradi. Ular orasida sopoldan yasalgan odam haykallari, bir bo‘lak nefrit, isirg‘a, tumor, mis va sopol idish hamda shunga o‘xshash tarixiy buyumlar bor.

Shunday qilib, XX asrning 20-yillariga qadar olimlar va turkshunos havaskorlarning kuchlari bilan O‘zbekiston o‘lkasini o‘rganishga doir anchagina materiallar to‘plangan. Biroq bularning orasida uzuq-yuluq va tasodifiy materiallar anchagina bo‘lib, keng, ilmiy asosda umumlashtirilmagan edi.

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida qoraqalpoq etnografiyasining o‘rganishda ilmiy jihatdan diqqatga sazovor bir qancha ishlar paydo bo‘lib, jiddiy tadqiqotchi olim va o‘lkashunoslар safi kengaydi.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**  
**SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь**

Ular o‘z asarlarida o‘zbek va boshqa Osiyo xalqlari ma’naviy va ma'rifiy turmushining hususiyatlari, urug‘-aymog‘lari va qabilachilik tuzumi, diniy e’tiqodlari va boshqa etnografik hususiyatlarini ta’riflash bilan birga, ularning ma’nosini ilmiy jihatdan sharhlashga intilganlar, lekin o‘z davrining hukmron ideallari ta’sirida bo‘lgan bu tadqiqotlar bir munkha nuqsonlardan xoli emas, albatta. Ijtimoiy masalalarni sharhlashda tadqiqotchilarning ojizligi, sub'ektivizmi yirik kontseptsiyalarning hukm surganligi ularning ko‘p asarlarida ham o‘z asosini topgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sayfutdinov, F. (2024). HISTORIOGRAPHY OF INFORMATION ABOUT THE POPULATION OF THE ZARAFSHAN OASIS.(20TH CENTURY). *Modern Science and Research*, 3(2), 911-914.
2. Sayfutdinov, F. (2023). ILLUMINATION OF KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOGRAPHIC STUDIES. *Modern Science and Research*, 2(12), 910–917. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27281>
3. Ilniyoz o‘g’li, S. F. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1-5.
4. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich. (2023). STUDY OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOLOGICAL SCIENTIFIC WORKS HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 61–68. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-11>
5. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o‘g’li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O‘ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 111–114. Retrieved from <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>
6. Sayfutdinov , F. (2024). ETHNIC COMPOSITION OF THE ZARAFSHAN OASIS (2ND HALF OF THE 20TH CENTURY). *Modern Science and Research*, 3(1), 577–581. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28335>
7. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich. (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь**

- KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>
8. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLA TUSHUNCHASINING VUJUDGA KELISHI HAQIDA.
9. Shokir o'g'li, S. U. (2024). MIRZO SIROJ HAKIM VA UNING MEROSI.
10. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 276-280.
11. Sadullayev, U. (2024). THE CONCEPT OF JADIDISM AND ITS ESSENCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 631–636. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30324>
12. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
13. Sadullayev , U. (2024). MIRZA SIROJ HAKIM AND HIS LEGACY. *Modern Science and Research*, 3(2), 902–910. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29502>
14. Бобохусенов, А. (2024). ИСТОРИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ БУХАРСКОГО ОАЗИСА. СОВРЕМЕННАЯ НАУКА И ИССЛЕДОВАНИЯ, 3(2), 634–640. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10667247>
15. Бобохусенов, А., и Ганиев, Х. (2024). ПРОБЛЕМЫ ПРОИСХОЖДЕНИЯ САКСКОЙ АРХЕОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. СОВРЕМЕННАЯ НАУКА И ИССЛЕДОВАНИЯ, 3(2), 641–645. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10667306>
16. Akmal , B. (2024). THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL. *Modern Science and Research*, 3(1), 694–698. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28381>
17. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
18. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь**

19. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>

20. Bobohusenov Akmal. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65–70. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10037>

21. Баходировна , Х. Ш. . (2024). Из Истории Изучения Пословиц И Поговорок. *Miasto Przyszłości*, 46, 513–520. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2892>

22. Xasanova, III. (2024). <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 425–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10651477>

23. Xasanova, S. (2024). DIFFERENCE BETWEEN PROVERB AND SAYING. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 140–147. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10467418>

24. Xasanova, S., & murodova, D. (2023). REPRESENTATION OF THE SYSTEMIC RELATIONS OF RUSSIAN VOCABULARY IN PROVERBS AND SAYINGS. *Modern Science and Research*, 2(10), 276–280. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24346>

25. Xasanova, S. (2023). USING EXPRESSIVE VOCABULARY IN RUSSIAN PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(10), 403–408. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25248>

26. Bobojonova , D. . (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. *Modern Science and Research*, 3(1), 687–693. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28380>

More Citation Formats

27. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). *Modern Science and Research*, 3(2), 739–746. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29461>. More Citation Formats

28. Okhunjonovna, B. D. (2024). Analysis of Folk Proverbs Based on Medicine. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 125-131.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь**

29. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUGOTIT TURK" DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.

30. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). KHOJA ABDULKHOLIQ GIJDUVANI. *Modern Science and Research*, 3(2), 87–93. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30711>

31. Toshpo'latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS OF ETHNOLOGIES OF BUKHARA. *Modern Science and Research*, 3(2), 1004–1011. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29523>

32. Toshpo'latova, S. (2024). ETHNOLINGUISTICS. *Modern Science and Research*, 3(2), 500–507. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29386>

33. Toshpo'latova, S. . (2024). RELIGIOUS ANTHROPOLOGY. *Modern Science and Research*, 3(1), 504–510. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28281>

34. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). M. S. ANDREYEV'S WAY OF LIFE. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655–659. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2280>

35. Srojeva, G. (2024). THE CANADIAN ECONOMY DURING THE GLOBAL ECONOMIC CRISIS. *Modern Science and Research*, 3(2), 57–63. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30678>

36. Vahobovna, S. G. . (2024). Role of Preschool Educational Institutions in Education of a Perfect Person. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 208–214. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2703>

37. Vahobovna, S. G. (2023). QUYI ZARAFSHON VOHASI TURIZM IMKONIYATLARI.

38. Srojeva, G. . (2024). STRENGTHENING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF PRESCHOOL EDUCATION AND TRAINING INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 673–681. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29450>

39. Srojeva, G. (2024). INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 1041–1050. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29547>